TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT BOSHQARUVI AKADEMIYASI

RAXIMOV DILMURODJON G‘ULOMJON O‘G‘LI

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINI KADRLAR BILAN TA’MINLASHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

UO‘K: ***342.5 (043.5) (575.1)***

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Raximov Dilmurodjon G‘ulomjon o‘g‘li
Davlat fuqarolik xizmatini kadrlar bilan ta’minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.....3

Rakhimov Dilmurodjon Gulomjon ugli
Improvement of the organizational and legal basis of personnel staffing for the state civil service.....23

Рахимов Дилмурожон Гуломжон угли
Совершенствование организационно-правовых основ кадрового обеспечения государственной гражданской службы.....41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных научных работ.....45

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT BOSHQARUVI AKADEMIYASI

RAXIMOV DILMURODJON G‘ULOMJON O‘G‘LI

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINI KADRLAR BILAN TA’MINLASHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2022.1.PhD/Yu585-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus, (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Xusanov Ozod Tillaboyevich,** yuridik fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Yusupov Sardorbek Baxodirovich,** yuridik fanlari doktori, dotsent
	Said-Gaziyeva Nilufar Sherzodovna, yuridik fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 18-yanvar soat 14^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1206-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 29-dekabrda tarqatildi.

(2023-yil “29” dekabrdagi 7-raqamli reyestr bayonnomasi).

R.R.Xakimov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlari doktori, professor

F.B.Maxmudov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

I.R.Bekov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlari doktori, professor

KIRISH (Doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda davlat boshqaruvi tizimi fan-texnika yutuqlari va zamonaviy standartlar asosida rivojlantirilayotgan hozirgi davrda islohotlar markazida davlat boshqaruvi apparatini eng munosib, malakali kadrlar bilan ta'minlash masalasi turadi. Boisi davlat boshqaruvini amalga oshirish bevosita davlat xizmatchilariga, ularning professionalligi va kasbiy mahoratiga bog‘liqdir. Davlat boshqaruvi va davlat xizmatining samarali tashkil etilishi ushbu sohaga oid xalqaro reyting va indekslarda davlatlarning yuqori o‘rinlarni egallashini ta'minlaydi. Har yili Jahon banki tomonidan e'lon qilinadigan "Hukumat samaradorligi" (Government Effectiveness) indeksining eng muhim mezoni ham aynan professional va samarali davlat xizmatini tashkil etilganligi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi "Hukumat samaradorligi" indeksida 2016-yilda 28,57% ko‘rsatkich bilan 144-o‘rinni qayd etgan bo‘lsa, sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida 2022-yilda 38.21% ko‘rsatkich bilan 193 ta davlat orasida 112-o‘rinni egalladi[1]. Mazkur holat davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini doimiy takomillashtirib borish zarurligini taqozo etadi.

Jahonning aksariyat mamlakatlarida davlat boshqaruvini isloh qilish davlat xizmatini takomillashtirish bilan birga kechadi. Sababi davlat xizmati davlat boshqaruvi tizimining eng muhim elementlaridan biri bo‘lib, davlat idoralarining vazifalari aynan davlat xizmatchilari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat xizmatchilari qanchalik bilimli, malakali, sadoqatli va mahoratli bo‘lsa, davlat boshqaruvi ham shunchalik samarali bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan jahon ilm-fanida davlat fuqarolik xizmatini kadrlar bilan ta'minlashni takomillashtirish borasida qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada davlat xizmatini to‘g‘ri tasniflash va unda davlat fuqarolik xizmatini samarali tashkil etish, ushbu soha uchun iqtidorli kadrlarni tayyorlash va ularning eng munosiblarini davlat xizmatiga qabul qilish, dinamik ijtimoiy jarayonlar sharoitida davlat xizmatchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish, rahbarlik lavozimlari uchun kadrlar zaxirasini shakllantirish bilan bog‘liq muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini topish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda davlat boshqaruvini isloh qilishda malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj hamda kadrlarni tayyorlash va tanlash masalasida hal qilinishi zarur muammolar mavjudligi yaqqol sezilmoqda. Shu bois, Taraqqiyot strategiyasi (2022-2026-yillar), "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi (2023-2030-yillar) kabi davlatning muhim hujjatlarida davlat boshqaruvini yanada rivojlantirishning muhim shartlaridan biri sifatida davlat fuqarolik xizmatini takomillashtirish masalasi belgilandi. 2019-yilda davlat rahbarining tashabbusi davlat fuqarolik xizmati sohasini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilanib, soha bo‘yicha maxsus vakolatli organ – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkil etildi. Bundan tashqari, 2022-yil 8-avgustda O‘zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida"gi O‘RQ-788-son Qonuni qabul qilindi. Lekin ushbu Qonun

[1] https://www.worldbank.org/en/publication/worldwide-governance-indicators/interactive-data-access

to‘liq kuchga kirdi, deb bo‘lmaydi. Boisi Qonunni amalga oshirish uchun bir qancha qonunosti hujjatlari qabul qilinishi lozim bo‘lib, ularning aksariyati hozircha qabul qilinmadi. Jumladan, davlat fuqarolik xizmatiga kadrlarni ochiq tanlov asosida qabul qilish tartib-taomillari, kadrlar zaxirasini yuritish tartiblari kabi masalalar normativ-huquqiy hujjat bilan mustahkamlab qo‘yilmagan. Shuningdek, 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendum asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egaligiga oid norma mustahkamlab qo‘yildiki, endilikda ushbu normani hayotga to‘liq joriy qilish ehtiyoji mavjud. Shu kabi omillar ushbu sohani ilmiy jihatdan tadqiq etish muhim vazifalardan biri ekanligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-788-son (2022) va “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son (2020) qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi SQ-297-IV-son qarori (2021), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5139-son (2017), “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5843-son (2019), “Davlat xizmatchilari va mutaxassislarni xorijda tayyorlash hamda ularning salohiyatini yanada oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6168-son (2021), “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son (2022), “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son (2023) farmonlari va mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz huquqshunos olim va tadqiqotchilaridan A.A. Azizxo‘jayev, X.T. Azizov, B.B. Alimov, X.R. Alimov, Sh.G‘. Asadov, M.A. Axmedshayeva, D.M. Bekchanov, H.B. Boboyev, Sh.Y. Jurayev, F.B. Isayeva, G.S. Ismailova, Sh.A. Ismoilov, A.A. Li, F.B. Maxmudov, M.M. Mirakulov, B.Sh. Mirboboyev, F.A. Muxitdinova, J.N. Nematov, B.B. Qodirov, N.Sh. Said-Gaziyeva, U.T. Tojixonov, R.R. Xakimov, I.A. Xamedov, X.S. Xayitov, E.T. Xojiyev, V.J. Xudoyberdiyeva, U.Sh. Xusainov, O.T. Xusanov, F.U. Yuldasheva, S.B.Yusupov, A.E. Yo‘ldoshev, va boshqalar tomonidan davlat xizmati va davlat kadrlar siyosatiga oid ayrim huquqiy masalalar tadqiq etilgan.

Q.X. Abdurahmanov, M.U. Atamuratov, A.S. Begmatov, N.Q. Jo‘rayev, S.A. Jo‘rayev, D.A. Iymanova, D.S. Kattaxanova, Q.Q. Quranbayev, F.R. Ravshanov, G.O. Sa’diyeva, A.F. Sultonov, O.A. Xasanov, A.A. Yuldashev, A.E. Yuldashev, J.Q. Yusubov kabi olimlar tomonidan davlat xizmatchilari, xususan rahbar kadrlarga oid masalalarning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-tarixiy va iqtisodiy jihatlari o‘rganilgan.

MDH davlatlarida davlat xizmatiga oid masalalarning ayrim jihatlari A.P. Alexin, G.V. Atamanchuk, E.B. Bazarbay, A.M. Baymenov, D.N. Baxrax, E.E. Duysenov, S.V. Kostromina, Y.M. Kozlov, B.M. Lazarev, O.A. Lakayev, V.M. Manoxin, N.S. Matveeva, A.V. Obolonskiy, D.M. Ovsyanko, D.X. Salikov, Y.Y. Solomatin, Y.N. Starilov, Y.A. Tixomirov, A.V. Torba kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan.

Tadqiqot olib borish jarayonida M. Beck, L. Bordogna, J. Bowman, J. Bratton, J. Breaugh, J. Cayer, T. Christensen, A. Ciobanu, D. DeCenzo, C. Demmke, B. Elman, I. Galnoor, G. Hammerschmid, J. Harris, M.Holzer, S. Horton, E. Huskey, B. Johansen, D. Kelly, P. Kim, Z. Lan, C. Lee, H. Lee, R. Mathis, S. Neri, J. Oser, A. Paludan, O. Poocharoen, J. Rabin, C. Reichard, S. Robbins, T. Scheer, E. Schroter, M. Scully, K. Tan, S. Theriault, A. Tiwari, S. Verhulst, L. Vyas, M. Warner, J. West, C. Wilkinson, M. Young, Y. Zhu, C. Zhua kabi xorijlik mutaxassislarning tadqiqot ishlari o‘rganildi[1].

Mamlakatimizda davlat xizmatiga oid bir qancha maxsus ilmiy tadqiqot ishlari yozilgan. Bu boradagi dastlabki tadqiqot B.Sh. Mirboboyev, O.T. Xusanov, A.S. Begmatovning “O‘zbekiston davlat xizmatini tashkil etishning tashkiliy huquqiy masalalari” nomli monografiyasi bo‘lib, unda davlat xizmati tushunchasi va prinsiplari, davlat xizmatchilarining tasniflanishi va javobgarligi, davlat xizmatiga oid mutafakkirlar qarashlari o‘rganilgan[2]. Shuningdek, professor O.T. Xusanov tadqiqotlarida davlat xizmatining asosiy vazifa va tamoyillari, davlat xizmatini huquqiy tartibga solish zarurati va bu borada milliy qonunchilikni takomillashtirish, davlat xizmatchilarining yuridik javobgarligi kabi masalalar tahlil qilingan[3].

Huquqshunos N.Sh. Said-Gaziyevaning “O‘zbekistonda davlat xizmatini isloh qilishning nazariy va amaliy muammolari” mavzusidagi doktorlik ishida davlat xizmatining shakllanish jarayonlaridagi milliy va xorijiy tajriba, davlat xizmatini huquqiy tartibga solish masalalari, davlat xizmatida korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat xizmatchilarining javobgarligi, davlat xizmatini isloh etish yondashuvlari tadqiq etilgan[4].

Huquqshunos F.U. Yuldasheva “O‘zbekiston Respublikasida davlat xizmatiga kirish va o‘tashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish” mavzusidagi doktorlik

---

[1] Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan

[2] *Мирбобоев Б., Хусанов О., Бегматов А.* Ўзбекистон давлат хизматини ташкил этишнинг ташкилий ҳуқуқий масалалари. – Т.: Akademiya, 2005. – 144 б.

[3] *Хусанов О.Т.* Давлат бошқаруви ва давлат хизмати ислоҳида муҳим қадам. // “Ҳуқуқ ва бурч” журнали. – № 7, 2020. – Б. 2-7.; *Хусанов О.Т.* Ўзбекистонда давлат фуқаролик хизмати ҳуқуқий асосларининг ривожланиш истиқболлари. // “Социология ва ҳуқуқ” журнали. – № 1, 2022. – Б. 59-64.

[4] *Саид-Газиева Н.Ш.* Ўзбекистонда давлат хизматини ислоҳ қилишнинг назарий ва амалий муаммолари: ю.ф.д. ... дисс. – Т., 2010. – 299 б.

(PhD) dissertatsiyasida davlat xizmatining modellari, asosiy prinsiplari, tartib-taomillari, davlat fuqarolik xizmatida kadrlar siyosatini amalga oshirish kabi masalalar tadqiq etilgan[1].

Yuqorida qayd etilgan ilmiy ishlarni tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, birinchidan, davlat xizmatida tizimidagi davlat fuqarolik xizmati sohasi, ikkinchidan, ushbu sohani kadrlar bilan bilan ta’minlash (kadrlarni tanlab olish, ularning zaxirasini shakllantirish, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish) mexanizmlari yaxlit tarzda alohida dissertatsiya ishi sifatida tadqiq qilinmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining PZ-20170926317 “O‘zbekistonda davlat xizmati tizimini rivojlantirish istiqbollari hamda davlat xizmatchilarini tayyorlash, tanlash va joy-joyiga qo‘yishni tartibga solishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish” ilmiy-amaliy loyihasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmatini kadrlar bilan ta’minlashning huquqiy asoslari va amaliyotini o‘rganish orqali uni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslantirilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi:

davlat xizmati institutining ilmiy-nazariy va metodologik asoslarini tadqiq etish;

davlat xizmati institutini tasniflash va davlat fuqarolik xizmatining ilmiy-nazariy asoslarini O‘zbekiston va rivojlangan davlatlar tajribasi asosida tadqiq etish;

davlat fuqarolik xizmati kadrlar bilan ta’minlash tashkil etish va boshqarish masalasini o‘rganish;

davlat fuqarolik xizmatida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va zaxirasini shakllantirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini tahlil qilish;

davlat fuqarolik xizmatiga kirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tahlil qilish;

rivojlangan xorijiy davlatlarda davlat xizmatini kadrlar bilan ta’minlash jarayonlarini tahlil qilish orqali mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmatini kadrlar bilan ta’minlashni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti O‘zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmatini kadrlar bilan ta’minlashni tashkil etish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqot predmetini davlat fuqarolik xizmatini kadrlar bilan ta’minlashga doir nazariy-huquqiy qarashlar, sohaga oid qonunchilik hujjatlari, ularni qo‘llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va tajribasi, yuridik fandagi mavjud konseptual yondashuvlar, nazariyalar va kategoriyalar tashkil etadi.

[1] *Юлдашева Ф.У.* Ўзбекистон Республикасида давлат хизматига кириш ва ўташнинг ҳуқуқий механизмини такомиллаштириш: ю.ф.ф.д. ... дисс. – Т., 2021. – 170 б.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni olib borishda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, normativ-huquqiy, umumlashtirish, ilmiy manbalarni kompleks tahlil qilish, mantiqiylik, ijtimoiy so‘rov, induksiya, deduksiya hamda statistik ma’lumotlar tahlili kabi usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

davlat fuqarolik xizmatiga kadrlarni ochiq, shaffof va adolatli tarzda tanlab olish va lavozim bo‘yicha o‘sib borish mexanizmlarini ta’minlash maqsadida adolatlilik, xolislik, ochiqlik va shaffoflik prinsiplarini joriy etish zarurati asoslab berilgan;

davlat fuqarolik xizmatida meritokratiya tamoyili va “karyera modeli” qoidalarini ta’minlash maqsadida davlat fuqarolik xizmatiga kadrlarni tanlab olishning ichki tanlov shaklida faqat davlat fuqarolik xizmatchilari, tashqi tanlov shaklida esa tegishli malaka talablariga javob beradigan barcha fuqarolar ishtirok etishi lozimligi asoslantirilgan;

kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo‘lgan yo‘nalishlar bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo‘shimcha kompetensiyalar egallanishini, kadrlar malakasini oshirish esa kasbiy kompetensiyalarning yangilab borilishini ta’minlashi va kadrlarning “karyera modeli” doirasida o‘sib borishiga xizmat qilishi asoslantirilgan;

davlat xizmati sohasida gender tenglikni ta’minlash, rahbarlik lavozimlarda xotin-qizlar ulushini oshirish maqsadida mahalliy ijro hokimiyati organlarining rahbarlik lavozimlariga xotin-qizlarni tayinlash amaliyotini kengaytirish lozimligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

davlat fuqarolik xizmatchilarining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonun bilan tartibga solinmagan mehnatga oid munosabatlari O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi bilan tartibga solinishi lozimligi asoslab berilgan;

davlat fuqarolik xizmatiga davlat tilini biladigan va davlat fuqarolik xizmati lavozimlarini egallash uchun tegishli malaka talablariga javob beradigan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari qabul qilinishi lozimligi asoslab berilgan;

chet el mutaxassislari va ekspertlari davlat fuqarolik xizmati lavozimlarini qonunchilikda belgilangan tartibda egallashi, shuningdek, ularning xizmatni o‘tash tartibi hamda shartlari tegishli shartnoma asosida belgilanishi lozimligi asoslangan;

davlat fuqarolik xizmatini yosh kadrlar bilan ta’minlash maqsadida davlat va nodavlat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarida tashabbuskor, iqtidorli, raqobatbardosh kadrlar zaxirasini shakllantirish chora-tadbirlarini ko‘rish lozimligi asoslangan;

mahallalardagi yoshlar yetakchilari orasidan yuqori ish natijasiga erishgan yoshlarni potensial rahbarlar sifatida Milliy kadrlar zaxirasiga kiritish hamda ularni tanlovsiz yuqori lavozimlarga o‘tkazish lozimligi asoslab berilgan;

davlat xizmatining fundamental qoidalarini belgilash va uni to‘g‘ri tasniflash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xizmati tizimi to‘g‘risida”gi Qonunini qabul qilish zarurati asoslangan va uning konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan usullar va foydalanilgan ilmiy-nazariy yondashuvlarning rasmiy

manbalardan olingani, xalqaro tajriba va milliy qonunchilik normalarining o‘zaro tahlil qilingani, davlat fuqarolik xizmatchilari o‘rtasida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnoma natijalariga asoslangani, tadqiqot tahlillarining yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e’lon qilingani, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilgani va belgilangan tartibda vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotda keltirilgan ilmiy nazariy xulosalar ta’lim sohasida “Davlat va huquq nazariyasi”, “Konstitutsiyaviy huquq”, “Ma’muriy huquq”, “Davlat xizmati”, “Davlat boshqaruvi”, “Inson resurslarini boshqarish” kabi fanlar bo‘yicha ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar, shuningdek, shu sohada ilmiy tadqiqotlarni olib borishda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilishi davlat fuqarolik xizmatini kadrlar bilan ta’minlashga oid qonunchilikni va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishga, davlat fuqarolik xizmatini munosib kadrlar bilan ta’minlash samaradorligini oshirishga, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy ongi va madaniyatini yanada yuksalishiga xizmat qilishi uning amaliy ahamiyatini belgilab beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Davlat fuqarolik xizmatini kadrlar bilan ta’minlashni takomillashtirishga oid tadqiqotdagi ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanildi:

davlat fuqarolik xizmatida adolatlilik, xolislik, ochiqlik va shaffoflik prinsiplarini belgilashga oid taklif O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-788-son Qonunining 5-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasining 2022-yil 30-sentyabrdagi 04/10-10-168-son dalolatnomasi). Maxsus Qonunda ushbu prinsiplarning joriy qilinishi davlat fuqarolik xizmatiga kadrlarni ochiq tanlov asosida qabul qilish, ularni baholash va lavozim bo‘yicha harakatlanish mexanizmlarining takomillashuviga xizmat qilgan;

davlat fuqarolik xizmatiga kadrlarni tanlab olishning ichki tanlov shaklida faqat davlat fuqarolik xizmatchilarining, tashqi tanlov shaklida esa tegishli malaka talablariga javob beradigan barcha fuqarolarning ishtirok etishi huquqini belgilashga oid taklif O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-788-son Qonunining 29-moddasini ishlab chiqishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasining 2022-yil 30-sentyabrdagi 04/10-10-168-son dalolatnomasi). Natijada davlat fuqarolik xizmatiga kadrlarni ichki va tashqi tanlov asosida qabul qilishning samarali tizimi yo‘lga qo‘yilib, bu davlat fuqarolik xizmatida meritokratiya tamoyili va “karyera modeli” qoidalarini ta’minlashga xizmat qilgan;

“kadrlarni qayta tayyorlash” va “kadrlar malakasini oshirish” tushunchalari xususiyatlarini farqlashga oid taklif O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonunining 13-moddasini ishlab chiqishda e’tiborga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Qonunchilik palatasi Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasining 2022-yil 24-apreldagi 1967-105-son dalolatnomasi). Ushbu taklif natijasida kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo‘lgan yo‘nalishlar bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo‘shimcha kompetensiyalarni egallanishini ta’minlashi, kadrlar malakasini oshirish esa kasbiy kompetensiyalarning yangilab borilishini ta’minlashi sifatida belgilanib, ushbu jarayonlarni samarali tashkil etishga xizmat qilgan;

mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining rahbarlik lavozimlariga xotin-qizlarni tayinlash amaliyotini kengaytirish lozimligiga oid taklif O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi SQ-297-IV-son qarori bilan tasdiqlangan 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining 4-bob 2-ustuvor yo‘nalishining 6-xatboshishini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasining 2022-yil 3-oktyabrdagi 25-12/2502-son dalolatnomasi). Natijada viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tuzilmalarida hokim o‘rinbosarlari – oila va xotin-qizlar boshqarmalari boshliqlari, tuman (shahar) hokimliklari tuzilmalarida hokim o‘rinbosarlari – oila va xotin-qizlar bo‘limlari boshliqlari lavozimlari joriy qilinib, bu davlat fuqarolik xizmatining rahbarlik lavozimlarida xotin-qizlar ulushining ortishiga, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir ishlarda xotin-qizlarning faolligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 6 ta xalqaro, 4 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbatlari, seminarlar va o‘quv mashg‘ulotlarida muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ish, jumladan, ilmiy jurnallarda 12 ta maqola (3 tasi xorijiy nashrda) va to‘plamlar tarkibida 10 ta maqola (6 tasi xalqaro anjumanlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, 8 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning matni 140 sahifani tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan aloqasi, uning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Davlat fuqarolik xizmatining nazariy-huquqiy masalalari”** deb nomlanib, unda davlat xizmati tushunchasi va mohiyati, davlat xizmatini tasniflashning nazariy-huquqiy masalalari, unda davlat fuqarolik xizmatining

tutgan o‘rni, shuningdek, mamlakatimiz davlat fuqarolik xizmatida kadrlar siyosatining rivojlanish bosqichlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan.

Ushbu bobning *“Davlat xizmati institutining nazariy-metodologik asoslari”* deb nomlangan birinchi paragrafida “davlat xizmati” institutining kelib chiqishi, unga oid muhim qarashlar va tushunchalar tahlil qilingan. Bu borada olimlarning (A.Paludan, I.Galnoor, J.Oser, C.Zhua, M.Warner, B.Elman) fikr-mulohazalari o‘rganilib, davlat xizmati miloddan avvalgi 3 ming yillikda Qadimgi Sharqda, asosan, Misr va Xitoyda shakllanganligi qayd etilgan. “Davlat xizmati” ijtimoiy-huquqiy kategoriya sifatida XIX asrda Buyuk Britaniyada qo‘llanila boshlanganligi ta’kidlangan.

“Davlat xizmati” institut sifatida Yevropada shakllangan bo‘lsa-da, unga oid qarashlar, xususan, davlat amaldorlarini tanlashda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan sifatlarga oid fikr-mulohazalar milliy-tarixiy manbalardan ham o‘rin olganligi ta’kidlangan. Muallif tomonidan “Avesto”, A.Farobiy, Y.Hojib, Nizomulmulk, A.Temur, A.Navoiy asarlarida ilgari surilgan ayrim g‘oyalardan misollar keltirib, ularning bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmaganligi qayd etilgan.

Ushbu paragrafda davlat xizmati alohida fan va tizim sifatida rivojlanayotgan bir paytda, Sobiq ittifoq davrida (1917-1991-yillar) ushbu masalasiga deyarli e’tibor qaratilmaganligi ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqotlarga asoslanib, ushbu davrda Sobiq ittifoqda A.Beylin, I.Pronin, Y.Razumov, V.Yaskov, mamlakatimizda T.Melnikova, N.Muhiddinov, A.Valiyev, Sh.Ziyomov, X.Tursunov, T.Toshmurodov, N.Ahmedov va M.Paklar tomonidan davlat xizmati va kadrlar siyosatiga oid izlanishlar olib borilgan bo‘lsa-da, ular kommunistik partiyaning g‘oyalariga mosligi va mavjud muammolar aniq faktlar asosida tahlil qilinmaganligi ta’kidlanadi.

Ushbu paragrafda “davlat xizmati” tushunchasi fanning turli sohalariga taalluqli bo‘lganligi bois, unga berilgan ta’riflar xilma-xilligi qayd etiladi. Jumladan, ayrim olimlar (B.Lazarev, A.Alexin, Y.Kozlov, A.Obolonskiy, Y.Starilov) davlat xizmatining davlatdan olinadigan maosh evaziga davlatga xizmat ko‘rsatish xususiyatiga e’tibor qaratishadi. Boshqa olimlar (V.Manoxin, Y.Tixomirov, E.Duysenov, E.Bazarbay, U.Tojixonov, A.Li, E.Xojiyev, G.Ismailova, M.Raximova, M.Holzer, J.Rabin) esa uning professional faoliyat ekanligini ta’kidlaydilar. Davlat xizmatini ta’riflashda uning mehnat faoliyati ekanligiga qaratilgan qarashlar ham shakllangan (Y.Starilov, N.Said-Gaziyeva, B.Mirboboyev, E.Xojiyev, X.Azizov, F.Yuldasheva). Dissertant tomonidan ushbu qarashlar asosida “davlat xizmati” tushunchasiga mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan.

Shuningdek, “davlat xizmatchisi” va “kadr” tushunchalarining xususiyatlari izohli, ensiklopedik lug‘atlar hamda olimlarning (D.Ovsyanko, D.Baxrax, O.Xusanov, U.Tojixonov, F.Yuldasheva, V.Xudoyberdiyeva) qarashlari asosida tahlil qilinib, ushbu tushunchalar bir-biridan farqlangan va ularga mualliflik ta’riflari taklif etilgan.

Birinchi bobning *“Davlat xizmatini tasniflash va unda davlat fuqarolik xizmatining o‘rni”* nomli ikkinchi paragrafida davlat xizmatining tasniflanishi va unda davlat fuqarolik xizmatining tutgan o‘rni tahlil qilingan. Ushbu masalani tadqiq etish 2019-yilda mamlakatimiz amaliyotida “davlat fuqarolik xizmati” tushunchasi vujudga kelib, uning aniq chegarasini belgilash zaruratidan kelib chiqqanligi ta’kidlangan.

Davlat xizmatini tasniflash bo‘yicha D.Ovsyanko, Y.Starilov, X.Alimov, B.Mirboboyev, N.Said-Gaziyeva, I.Xamedev, E.Xojiyev, F.Yuldasheva, F.Isayeva, Sh.Jurayev tomonidan ilgari surilgan fikr-mulohazalar tahlil qilingan. Ushbu masala bo‘yicha AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Shveysariya, Koreya Respublikasi, ayrim MDH davlatlari, shu jumladan, Rossiya, Ukraina, Armaniston, Qirg‘iziston tajribasi o‘rganilgan. O‘zbekiston Respublikasi davlat xizmatini tasniflashda, asosan, Rossiya tajribasiga e’tibor qaratilganligi qayd etilgan. Davlat xizmatini tasniflash jarayonida vujudga kelgan huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xizmati tizimi to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinib, unda davlat xizmatining turlari aniq belgilanishi taklif etilgan.

Mazkur paragrafda MDHga a’zo davlatlar Parlamentlararo Assambleyasining 1998-yil 15-iyundagi 11-5-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat xizmati asoslari to‘g‘risida”gi namunaviy qonuni qoidalaridan kelib chiqib, adliya organlari, soliq xizmati va tashqi (diplomatlik va konsullik) xizmat faoliyati “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonun doirasiga kiritilmasligi hamda alohida qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi maqsadga muvofiqligi qayd etilgan.

Davlat xizmati tizimida Parlament a’zolari va xodimlari, davlat muassasalarida faoliyat yurituvchi ta’lim va tibbiyot xodimlarining huquqiy maqomini belgilashga oid mulohazalar ham bayon etilgan. Natijada, Parlament a’zolari va hukumat a’zolarini davlat siyosiy xizmatiga kiritish, davlat muassasalarida faoliyat yurituvchi ta’lim va tibbiyot xodimlarini davlat fuqarolik xizmatiga kiritish yoki ular uchun alohida davlat xizmati turini belgilash, Parlament devoni xodimlarini esa davlat fuqarolik xizmatiga kiritish g‘oyalari ilgari surilgan.

Shuningdek, “davlat fuqarolik xizmati” va “davlat fuqarolik xizmatchisi” tushunchalariga mualliflik ta’riflari ishlab chiqilgan.

Birinchi bobning uchinchi paragrafi *“O‘zbekiston davlat fuqarolik xizmatida kadrlar siyosatining rivojlanish bosqichlari”* masalasiga bag‘ishlanib, unda ushbu jarayonlar bosqichlarga ajratilgan holda tadrijiy tahlil qilingan. O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmatida kadrlar siyosati 2 bosqichda takomillashib borganligi qayd etilgan: davlat fuqarolik xizmatida kadrlar siyosatining shakllanish bosqichi (1991-2016 yy.) va sohaning zamonaviy standartlar asosida rivojlanish bosqichi (2017-h.v.).

Birinchi bosqichda (1991-2016 yy.) professional davlat xizmatini shakllantirish masalasiga sust qaralganligi ko‘rsatilgan. Ushbu bosqichda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi bilan davlat fuqarolik xizmatining ilk asoslari yaratilganligi, ijro hokimiyati va davlat organlari tizimi shakllanganligi, oliy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash tizimi takomillashib borganligi, iste’dodli yoshlarni chet elda o‘qishini qo‘llab-quvvatlash tizimi shakllanganligi, boshqaruv va rahbar kadrlarni tayyorlash tizimi shakllanib, rivojlanib borganligi, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatiga oid ayrim qonunosti hujjatlari qabul qilinganligi ta’kidlangan.

Ikkinchi bosqich 2017-yilda boshlanib, bugungacha davom etib kelayotganligi va ushbu bosqichda davlat fuqarolik xizmatini tubdan isloh qilishga kirishilganligi qayd etilgan. Davlatning muhim strategik dasturlari bo‘lgan Harakatlar strategiyasi,

Ma’muriy islohotlar konsepsiyasi, Taraqqiyot strategiyasi va O‘zbekiston – 2030 strategiyasida davlat xizmatini takomillashtirish davlat boshqaruvini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanayotganligiga e’tibor qaratilgan. Natijada, 2019-yilda davlat kadrlar siyosati bo‘yicha vakolatli organ – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkil etilganligi, 2022-yil 8-avgustda esa uzoq kutilgan O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinganligi ta’kidlangan. Mazkur davrda boshqaruv kadrlarini tayyorlash va malakasini oshirish tizimi yanada takomillashganligi, jumladan, Davlat boshqaruvi akademiyasining sirtqi ta’lim shakllari va hududiy filiallari, shuningdek, kadrlarni xorijda tayyorlash uchun “El-yurt umidi” jamg‘armasi tashkil etilganligi qayd etilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmatini kadrlar bilan ta’minlashning tashkiliy-huquqiy asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida davlat fuqarolik xizmatini kadrlar bilan ta’minlashni tashkil etish va boshqarish, sohada kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va zaxirasini shakllantirish, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatiga kirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari tahlil qilingan.

Ushbu bobning *“Davlat fuqarolik xizmatini kadrlar bilan ta’minlashni tashkil etish va boshqarish”* deb nomlangan birinchi paragrafida “davlat fuqarolik xizmatini kadrlar bilan ta’minlash” tushunchasining mohiyati olimlar (J.Bratton, R. Mathis, Sh.Asadov, O.Ibrohimov, F.Yuldasheva)ning qarashlari va mavjud amaliyot asosida tahlil qilinib, unga mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotchi davlat fuqarolik xizmatini kadrlar bilan ta’minlashda ishtirok etuvchi subyektlarni A.Azizxo‘jayev O.Xusanov, R.Xakimov, B.Alimov, M.Axmedshayeva, M.Mirakulov, F.Yuldasheva tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar asosida tahlil qilgan hamda ularni vakolatiga ko‘ra, umumiy vakolatli va maxsus vakolatli subyektlarga ajratish orqali tahlil qilishni taklif etgan.

Umumiy vakolatli subyektlar mazmuniga ko‘ra, boshqa sohalarda ham keng vazifalarga ega bo‘lib, davlat fuqarolik xizmatini kadrlar bilan ta’minlashda ishtirok etish uning vakolatlaridan biri hisoblanishi va bunday subyektlarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlisi va Vazirlar Mahkamasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda davlat fuqarolik xizmatini nazarda tutuvchi davlat organlari va idoralarini kiritish mumkinligi taklif etilgan.

Maxsus vakolatli subyektlar esa kadrlar siyosatini amalga oshirish uchun tashkil etilishi qayd etilgan. Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi va uning hududiy filiallari, Davlat boshqaruv akademiyasi va uning hududiy filiallari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining kadrlar siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi bo‘linmasi, Vazirlar Mahkamasi Bosh vazir kotibiyatining Kadrlar bo‘limi, Viloyat, shahar va tuman hokimliklari boshqaruv apparatidagi Tashkiliy-nazorat guruhi, bundan tashqari, davlat fuqarolik xizmatiga taalluqli davlat organlari va idoralarining kadrlar bo‘linmalari maxsus vakolatli subyektlar sifatida qayd etilishi taklif etilgan.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi *“Davlat fuqarolik xizmatida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va zaxirasini shakllantirishning*

tashkiliy-huquqiy asoslari” deb nomlangan. Davlat fuqarolik xizmati uchun kadrlar oliy va o‘rta-maxsus ta’lim tizimida shakllanishi qayd etilib, mamlakatimizda 1997-yilda 58 ta, 2016-yilda 77 ta oliy o‘quv yurti mavjud bo‘lsa, bugungi kunda ularning soni 212 taga yetganligi ta’kidlangan. 2016-yilga nisbatan bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari soni 2,7 baravarga, qabul ko‘rsatkichlari 3,7 baravarga, eng asosiysi – oliy ta’lim bilan qamrov darajasi 9 foizdan 38 foizga oshganligi, umuman olganda, oliy ta’lim sohasidagi islohotlarning barchasi davlat fuqarolik xizmati uchun potensial kadrlarni ham son, ham sifat jihatdan ko‘payishiga xizmat qilishiga urg‘u qaratilgan. Davlat boshqaruvi akademiyasining qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilari orasida 2022-yilda ijtimoiy so‘rovnoma o‘tkazilib, unga ko‘ra, “Davlat fuqarolik xizmati uchun zarur bo‘ladigan tanlov fanlarni joriy qilish” (40 foiz), “Davlat fuqarolik xizmatiga mos yangi mutaxassisliklarni joriy qilish” (21,9 foiz), “Davlat fuqarolik xizmatchilarini tayyorlaydigan alohida ta’lim tashkilotlarini tashkil etish” (36,9 foiz) takliflari oliy ta’lim tizimida davlat fuqarolik xizmati uchun kadrlar tayyorlashni takomillashtirish yo‘nalishlari sifatida ilgari surilgan.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalari ham davlat fuqarolik xizmatini kadrlar bilan ta’minlashning ajralmas qismi ekanligi ta’kidlanib, uning yagona tartib-qoidalarini belgilash taklif etilgan. Ijtimoiy so‘rovnoma natijalariga ko‘ra (71,3 foiz), davlat fuqarolik xizmatchilarining har yili malakalarini oshirish lozimligi taklif etilgan. Umuman olganda, bugungi kunda vazirlik va idoralar tizimida 110 ta qayta tayyorlash va malaka oshirish markazlari faoliyat yuritib, har bir markaz o‘zining o‘quv dasturlari, metodikalari va mavzular doirasini mustaqil ravishda shakllantirishi aytilgan. Bu esa yagona tizim mavjud emasligi, davlat fuqarolik xizmatchilari uchun zarur umumiy fundamental fanlarni o‘qitilmasligi, bosqichma-bosqich rahbarlik lavozimiga tayyorlab borish nazarda tutilmaganligi, markazlar professor-o‘qituvchilarining malakasini oshirish borasidagi faoliyat tizimli yo‘lga qo‘yilmaganligi, axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish yetarli darajada emasligi kabi muammolarni yuzaga chiqarishi qayd etilgan. Dissertant tomonidan olimlarning qarashlari (F.Otaxonov B.Qodirov, B.Jo‘rayev, F.Yuldasheva, Sh.Asadov, B.Alimov A.Yuldashev, O.Xasanov, D.Kelly) va xorijiy mamlakatlar (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Koreya, BAA, Malayziya) tajribasi asosida ushbu muammolarni hal qilish mexanizmlari taklif etilgan.

Davlat fuqarolik xizmatini kadrlar bilan ta’minlashdagi yana bir muhim masala bu kadrlar zaxirasini shakllantirish bo‘lib, bu borada Buyuk Britaniya, Daniya, Ispaniya, Germaniya, Italiya, Koreya Respublikasi, Niderlandiya, Fransiya, AQSH, Yaponiya kabi mamlakatlar samarali tizimni yo‘lga qo‘yganliklari qayd etilgan. Olimlar (Y.Solomatin, O.Xusanov, F.Ravshanov, F.Yuldasheva, E.Huskey, A.Borovskaya)ning mulohazalari tahlil etilib, “davlat fuqarolik xizmatida kadrlar zaxirasi” tushunchasiga ilmiy ta’rif berilgan va tizimni rivojlantirish mexanizmlari taklif etilgan.

Mazkur bobning *“Davlat fuqarolik xizmatiga kirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari”* deb nomlangan uchinchi bobida “davlat fuqarolik xizmatiga

kadrlarni tanlash", "davlat fuqarolik xizmatiga kadrlarni qabul qilish", "davlat fuqarolik xizmatida kadrlar bilan mehnat shartnomasi tuzish", "davlat fuqarolik xizmati lavozimiga tayinlash", "davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallash", "meritokratiya", "ochiq tanlov", "ichki tanlov", "tashqi tanlov" kabi jarayonlar tahlil qilingan. Ushbu paragrafda mahalliy (O.Xusanov, B.Mirboboyev, X.Azizov, X.Xaytiov, Sh.Asadov, E.Xojiyev, T.Xojiyev F.Yuldasheva, O.Xasanov) va xorijlik (T.Christensen, A. Ciobanu, M.Young, M.Scully, A.Torba, O.Lakayev, A.Mordasova, Y.Jidyayeva, S.Kostromina) olimlar qarashlari, ijtimoiy so‘rovnoma natijalari hamda xorijiy tajriba asosida "Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida"gi Qonunda davlat fuqarolik xizmatiga kirish usullarini aniq belgilash, uning "Davlat fuqarolik xizmatiga kirish tartibi" deb nomlangan 6-bobiga malaka talablari va sinov muddati bilan bog‘liq moddalarni kiritish, davlat fuqarolik xizmatiga kirish talablarini belgilash va bunda chet el fuqarolarining huquqiy maqomini belgilash, ochiq tanlov tizimining xolisligi va samaradorligini ta'minlashga oid amaliy takliflar ilgari surilib, "davlat fuqarolik xizmatida ochiq tanlov" tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmatini kadrlar bilan ta'minlashning istiqbollari"**ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda tadqiqotchi tomonidan davlat xizmati modellari, davlat xizmatini kadrlar bilan ta'minlash bo‘yicha AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Singapur va MDH davlatlari tajribasi va yutuqlari o‘rganilib, O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmatini kadrlar bilan ta'minlashni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari taklif etilgan.

Mazkur bobning birinchi paragrafi *"Xorijiy mamlakatlarda davlat xizmatini kadrlar bilan ta'minlash masalasi"* deb nomlangan. Dissertant davlat xizmatini tashkil etish bo‘yicha muayyan xalqaro standartlar mavjud emasligini, faqatgina bir qancha xalqaro hujjatlarda davlat xizmatiga oid ayrim normalar belgilanganligini qayd etadi. Har bir mamlakat davlat xizmati o‘ziga xos shakllangan bo‘lib, bu o‘ziga xoslikni ma'lum ma'noda uning huquqiy tizimi va davlat boshqaruvi xususiyatlari belgilab berishi, shunday bo‘lsa-da, nisbatan bir-biriga o‘xshash davlat xizmati tizimlari shakllanganligi olimlarga davlat xizmatini turli mezonlar asosida bir qancha guruhlar (modellar)ga tasniflashga imkon berishi ta'kidlangan. Ushbu masala bo‘yicha muallif mahalliy (N.Said-Gaziyeva, I.Xamedov, U.Xusainov, F.Yuldasheva, O.Xusanov, Sh.Asadov, D.Raximova) va xorijlik (V.Stancetic, S.Horton, J.Breaugh, G.Hammerschmid) olimlarning fikr-mulohazalarini o‘rganib, davlat xizmatini tashkil etishning, asosan, anglo-sakson (ochiq); kontinental (yopiq, karyera); islom; mehnat modellari keng tarqalgan, degan xulosaga kelgan.

Davlat xizmati tizimini tashkil qilishning anglo-sakson (ochiq) modeli xizmatchilarni tanlashda ochiq tanlov, davlat xizmatchisining bajargan ishining natijalariga qarab ish haqi va xizmat bo‘yicha ko‘tarilishining ta'minlanishi, ish haqi darajasining xususiy sektorga nisbatan yuqori ekanligi, davlat xizmatchilariga ijtimoiy-iqtisodiy tomondan berilgan imtiyoz va kafolatlarning salmoqliligi, ishdan bo‘shatish tizimining soddaligi bilan ajralib turishi qayd etilib, bu modelga

Buyuk Britaniya, AQSH, Singapur, Kanada, Yangi Zelandiya, Norvegiya kabi mamlakatlar amaliyoti va tajribasi misol bo‘lishi ta’kidlangan.

Davlat xizmatining kontinental (yopiq, karyera) modeli esa qat’iy karyerali tizim hisoblanib, muayyan tizimning o‘zida lavozim bo‘yicha o‘sib borishga asoslanishi, Fransiya, Germaniya, Ispaniya, Italiya, Belgiya, Avstriya, Finlyandiya, Chexiya, Portugaliya, Meksika, Yaponiya, Koreya Respublikasi kabi mamlakatlar davlat xizmati ushbu modelga taalluqli ekanligi ta’kidlangan.

Davlat xizmatining mehnat modeli davlat xizmatchilarining faoliyati ommaviy huquq (davlat xizmati bo‘yicha maxsus qonun) bilan bir qatorda mehnat qonunchiligi bilan ham tartibga solinishi, bu jihatdan ushbu model kontinental model tarkibidagi davlat huquqi modeliga yaqin turishi, ushbu modelga MDH davlatlarining aksariyati xos ekanligiga e’tibor qaratilgan.

Davlat xizmatining islom modelida esa anglo-sakson va kontinental modellarga xos elementlar bilan bir qatorda islom dini xususiyatlari qorishib ketishi, ushbu modelga islom dinining nufuzi baland bo‘lgan G‘arbiy, Janubi-g‘arbiy Osiyo hamda Shimoliy Afrikadagi aksariyat mamlakatlar davlat xizmatini kiritish mumkinligi qayd etilgan.

Ayrim olimlar (X.Xayitov, B.Alimov, F.Yuldasheva va Sh.Ismoilov) davlat fuqarolik xizmatiga oid maxsus qonun bilan tartibga solinmagan mehnat munosabatlari mehnat qonunchiligiga havola etish orqali ular o‘rtasida uzviylikni ta’minlash mumkinligini qayd etishadi. Mamlakatimiz qonunchiligida ushbu tartibning belgilanishi natijasida davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyati ommaviy huquq normalari bilan bir qatorda mehnat huquqi normalari bilan ham tartibga solinadigan aralash tizim shakllanganligi ta’kidlangan.

